



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 5-iyul, № 137 (9032)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## O'ZBEKISTON PREZIDENTI IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTINI O'RTA VA UZOQ DAVRDA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARINI QAYD ETDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 2 – 4-iyul kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.



Davlatimiz rahbari 4-iyul kuni Xonkendi shahrida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 17-sammitida ishtirok etdi.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev raisligida o'tgan tadbirda Eron Islom Respublikasi

Prezidenti Mas'ud Pezeshkiyov, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz

Sharif, Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Oijas Bektenov, Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o'rinbosari – tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov, Afg'oniston Bosh vaziri o'rinbosari vazifasini bajaruvchi Mulla Abdul G'ani Barodar,

IHT bosh kotibi Asad Majid Xon hamda boshqa qator davlatlar va mintaqaviy tashkilotlar delegatsiyalari rahbarlari qatnashdi.

IHT doirasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi, dolzarb xalqaro

va mintaqaviy muammolar yuzasidan fikr almashildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev so'zining avvalida xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga tahdid solayotgan xavf-xatarlarni qayd etdi. O'zbekiston yetakchisi mojaro va

nizolarni diplomatiya va konstruktiv muzokaralar yo'li bilan hal etish muhim ekanini yana bir bor ta'kidledi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTI SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Sizlar bilan qadimiy Qorabog' zaminida, noyob tarixiy va madaniy merosni o'zida mujassam etgan ko'rkam Xonkendi shahrida ko'rishib turganimizdan behad mamnunman.

Bugun ushbu hudud tom ma'noda bunyodkorlik va tinchlik makoniga aylanib borayotgani chin qardosh sifatida bizni cheksiz quvontiradi.

Aynan shu zaminda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining sammitini yuksak darajada tashkil etayotgani va samimiy qabul uchun Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti hurmatli Ilhom Aliyev Janobi Oliylariga chuqur minnatdorlik izhor etaman.

Toshkentdagi tarixiy sammitimizdan keyin Tashkilotning institutsional salohiyatini mustahkamlash, yangi yo'nalishlarda hamkorlikni yo'lga qo'yish borasida sezilarli yutuqlarga erishildi.

Fursatdan foydalanib, Tashkilotimiz doirasida Qozog'iston Respublikasining samarali raisligini ham alohida ta'kidlab o'tmoqchiman.

Shu bilan birga, anjumanimizda uzoq tanaffusdan so'ng Afg'oniston Muvaqqat hukumati delegatsiyasi ishtirok etayotganidan xursandmiz. Chunki biz qo'shni Afg'onistonni Tashkilotimiz makonining ajralmas bir qismi, keng ko'lami iqtisodiy hamkorlik va transport sohasidagi o'zaro bog'liqlik jarayonlarining muhim ishtirokchisi sifatida ko'ramiz va har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Bugungi sammitimiz butun dunyo hamjamiyati keskin inqirozni boshidan kechirayotgan murakkab bir sharoitda bo'lib o'tmoqda.

Ayniqsa, aksariyat ziddiyat va nizolar aynan bizning Tashkilotimiz makonida sodir bo'layotgani

fikrimizning yaqqol isbotidir. So'nggi oylarda Janubiy Osiyo va Yaqin Sharqda yuz bergan voqealar barchamizni chuqur tashvishga solmoqda.

Xalqaro huquq va global xavfsizlik institutlarining tanazzuli muloqot va hamkorlikni yanada zaiflashtirib, kuch ishlatish va zo'raonlikka keng yo'l ochmoqda. Xususan, Tashkilotimiz a'zosi bo'lgan Eron Islom Respublikasiga nisbatan olib borilgan harbiy harakatlar butun mintaqani urush girdobiga tortish, keng miqyosdagi ekologik halokat o'chog'ining vujudga kelish xavfini tug'dirdi.

Eron va Isroil o'rtasida o't ochishni to'xtatish bo'yicha erishilgan kelishuvni qo'llab-quvvatlaymiz. Ushbu qarorni mintaqadagi keskinlikni yumshatish, xavfsizlikni tiklash yo'lidagi muhim qadam sifatida baholaymiz.

Bu kelishuv barcha muammolarni diplomatik va konstruktiv muzokaralar yo'li bilan hal etish uchun mustahkam zamin yaratishiga ishonamiz.

Ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik va ularni ishlatishdan tiyilish xalqaro xavfsizlikning eng dolzarb masalasi ekanini inobatga olib, dunyo hamjamiyatini yana bir bor yadro qurolidan xoli hududlar geografiyasini kengaytirishga chaqiramiz.

Ta'kidlash joizki, Falastin – Isroil ziddiyatini adolati hal etmasdan turib, Yaqin Sharqdagi tinchlik va barqarorlikka erishish mumkin emas.

Biz G'azo sektorida harbiy harakatlarni to'xtatish, ochlik va g'ayriinsoniy sharoitdan azob chekayotgan aholiga gumanitar yordam ko'rsatishga hech qanday to'siq qo'yimaslik, Birlashgan Millatlar Tashkiloti rezolyutsiyalariga muvofiq mustaqil Falastin davlatini tashkil etish tarafdorimiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Har qanday tinchlik va taraqqiyotning asosi, eng avvalo, iqtisodiy hamkorlik bilan belgilanadi. Shu bois Tashkilotimiz doirasidagi sheriklik bugungi kunda nafaqat tabiiy, balki muhim strategik ahamiyatga ega.

Yig'ilishimiz kun tartibidan kelib chiqib, bir qator masalalarga e'tiboringizni qaratmoqchi edim.

Eng avvalo, biz Tashkilotimizning o'rt va uzoq davrdagi ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilab olishimiz kerak.

Bu borada "Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari – 2035" konsepsiyasini qabul qilishimiz zarur. Hujjatda savdo, investitsiya, transport, energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi, ekologiya, turizm va ta'lim kabi an'anaviy yo'nalishlar bilan birga, innovatsiyalar, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohalarida hamkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Tashkilotimiz doirasida tovar va xizmatlar savdosini soddalashtirish, texnik va notarif to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish, elektron savdoni rivojlantirish masalalari ayniqsa dolzarbdir.

Shunga e'tiboringizni qaratmoqchiman: hozirgi kunda o'zaro savdo hajmi past darajada qolmoqda. Bu ko'rsatkich 2024-yilda 95 milliard dollarni tashkil etib, davlatlarimiz umumiy savdo aylanmasining 10 foizini tashkil etdi.

Mazkur yo'nalishda strategik masalalarni muhokama qilish, Savdoni soddalashtirish to'g'risidagi bitimni kelishish maqsadida joriy yil Toshkentda savdo vazirlarimizning uchrashuvini o'tkazish taklifini ilgari suramiz.

Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi bo'yicha tezkor ma'lumot almashish va

to'siqsiz yetkazishga qaratilgan "yashil yo'laklar" tizimini yaratish dolzarbdir.

Sarmoyaviy hamkorligimizni yangi bosqichga olib chiqish, investitsiya muhitini yanada shaffof va jozibador qilish maqsadida uzoq muddatli "Ekoinvest" dasturini qabul qilish tashabbusini ilgari suramiz. Bu dasturning asosiy maqsadi mintaqamizdagi istiqbolli loyihalarga xususiy investorlar, banklar va xalqaro moliya institutlarini keng jalb etish, deb hisoblaymiz.

Yana bir ustuvor yo'nalish. So'nggi vaqtdagi geosiyosiy voqealar xalqaro logistika zanjirlarining uzilish xavfi naqadar yuqoriligi hamda muqobil transport yo'laklarini shakllantirish strategik ahamiyatga ega ekanini yana bir bor isbotladi.

O'tgan yili Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li loyihasini amalga oshirishni boshlaganimiz muhim voqea bo'ldi. Kelgusida ushbu magistral tarmoq Transafg'on yo'lgi bilan tutashib, keng mintaqamizdagi tranzit tarmoqlarini samarali birlashtirish imkonini beradi.

Transport va logistika sohasini raqamlashtirish ishlarini tizimli asosda yo'lga qo'yish maqsadida Raqamli transport va bojxona idorasini tashkil etish to'g'risidagi tashabbusni amalda tatbiq etish vaqti keldi, deb hisoblaymiz va ekspertlar darajasidagi muzokaralarni jadallashtirish tarafdorimiz.

Mintaqada yangi aviaqatnovlar yo'nalishlarini ochish, aviakompaniyalar o'rtasida innovatsion hamkorlik shakllarini yo'lga qo'yish, turizm va aviatsiya sohalarini o'rtasida marketing bo'yicha integratsiyalashgan strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu masalalarni muhokama qilish maqsadida Milliy aviakompaniyalar forumini Samarqandda tashkil etishni taklif qilamiz.

Istiqbolda turizm sohasida sayyohlar oqimini ikki barobar oshirish uchun yetarli salohiyatga egamiz. Tashkilot doirasida turizm xizmatlarini kengaytirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish ayni shu ezgu maqsadimizga xizmat qiladi.

E'tiboringizni yana bir muhim masalaga qaratmoqchiman.

Global iqlim kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan davlatlarimizning itilish va sa'y-harakatlarini birlashtirish muhimdir. Boku shahrida muvaffaqiyatli o'tgan COP-29 global iqlim sammitida qabul qilingan majburiyatlardan va kelishuvlar to'liq amalga oshirilishining qat'iy tarafdorimiz.

Tashkilot doirasida cho'l hududlarida o'rmonlar tashkil qilish, rekreatsiya zonalarini barpo etish bo'yicha Transchegaraviy "yashil dasturi"ni ishlab chiqishni taklif etamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari! Tashkilotimiz faoliyatini takomillashtirish maqsadida tashkil etilgan Yuqori darajadagi qo'mitaning ishini ijobiy baholaymiz. Qo'mitaga kelgusi sammitga qadar Tashkilot faoliyatini isloh qilish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifasini topshirsak, o'ylaymanki, ushbu fikrimni ma'qullaysizlar.

Bunday islohotlar hamkorligimizni yangi bosqichga olib chiqish, Tashkilotning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini yanada oshirish hamda uning faoliyatini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Ishonaman, bugungi sammitimiz ko'p qirrali va amaliy hamkorligimizni yangi bosqichga ko'tarish borasidagi katta niyat va rejalarimizga munosib turki bag'ishlaydi.

E'tiboringiz uchun rahmat!

Ushbu sonda:

### O'ZBEKISTONNING YANGI TIMSOLI

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan yaratilgan Vatanimizning ijobiy imiji haqida o'ylar

DEHQON MEHNATI QADR TOPAYOTGAN YURT

Mahmud TOIR,  
O'zbekiston xalq shoiri,  
Oliy Majlis Senati a'zosi.

### PARKENT UYG'ONGANLAR VATANI BO'LSIN!

# O'ZBEKISTON PREZIDENTI IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTINI O'RTA VA UZOQ DAVRDA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARINI QAYD ETDI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Shu bilan birga, Falastin – Isroil ziddiyatini adolatli hal etmasdan turib, Yaqin Sharqda tinchlik va barqarorlikka erishib bo'lmaydigan ta'kidlandi.

Yig'ilish kun tartibiga o'tar ekan, O'zbekiston Prezidenti qator dolzarb masalalarga e'tibor qaratdi.

Avvalo, tashkilotning o'rta va uzoq muddatli istiqboliga mo'ljallangan rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini ilgari surish maqsadida «Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari – 2035» konsepsiyasini qabul qilish muhimligi qayd etildi. Hujjatda an'anaviy yo'nalishlar bilan bir qatorda innovatsiyalar, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohalaridagi hamkorlikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ayniqsa, tovarlar va xizmatlar savdosini soddallashtirish, texnik va notarif to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish, elektron tijoratni rivojlantirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bu boradagi strategik masalalarni muhokama qilish va Savdoni

soddalashtirish to'g'risidagi bitimni qabul qilish uchun joriy yilda Toshkent shahrida savdo vazirlarining uchrashuvini o'tkazish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi bo'yicha tezkor axborot almashish va ularni to'siqsiz yetkazib berish uchun «yashil yo'laklar» tizimini yaratish tashabbusini ilgari surdi. Investitsiyaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, yanada shaffof va jozibador investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida uzoq muddatli «Ekoinvest» dasturini qabul qilish muhimligi ta'kidlandi.

– Bu dasturning asosiy maqsadi mintaqamizdagi istiqbolli loyihalarga xususiy investorlar, banklar va xalqaro moliya institutlarini keng jalb etish deb hisoblaymiz, – dedi O'zbekiston yetakchisi.

Hozirgi geosiyosiy sharoitda muqobil transport yo'laklarini shakllantirish strategik ustuvor vazifadir. Istiqbolli Transafg'on yo'laga tutashirilishi mumkin bo'lgan Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li loyihasi keng mintaqadagi tranzit tarmoqlarini

samarali bog'lash imkonini berishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari transport-logistika sohasini raqamlashtirish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish maqsadida Raqamli transport va bojxona idorasini tashkil etishni tezlashtirish taklifini ham ilgari surdi.

– Mintaqada yangi aviaqatnovlar yo'nalishlarini ochish, aviakompaniyalar o'rtasida innovatsion hamkorlik shakllarini yo'lga qo'yish, turizm va aviatsiya sohalari o'rtasida marketing bo'yicha integratsiyalashgan strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir, – dedi O'zbekiston rahbari.

Shu masalalarni muhokama qilish uchun joriy yilda Samarqandda Milliy aviakompaniyalar forumini o'tkazish taklif qilindi.

Sayyohlar oqimini ikki barobar oshirish uchun katta salohiyat borligi ko'rsatib o'tildi. Tashkilot doirasida turizm xizmatlarini kengaytirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» qabul qilinishi bunga xizmat qiladi.

Global iqlim kun tartibidagi masalalarda sa'y-harakatlarni

birlashtirish muhimligini qayd etib, Prezidentimiz cho'l hududlarida o'rmonlar tashkil qilish va rekreatsiya zonalarini barpo etish bo'yicha Transchegaraviy «yashil dastur» ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi.

O'zbekiston yetakchisi Yuqori darajadagi qo'mita ishini ijobiy baholab, unga kelgusi sammitga qadar IHT faoliyatini takomillashtirish bo'yicha aniq tavsiyalar tayyorlash vazifasini topshirishni taklif qildi.

– Islohotlar hamkorligimizni yangi bosqichga olib chiqish, Tashkilotning xalqaro maydondagi obro-e'tibori va nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi, – dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari so'zining yakunida ushbu sammit Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti doirasidagi ko'p qirrali amaliy hamkorlikka kuchli sur'at bag'ishlashi va yangi bosqichni boshlab berishiga ishonch bildirdi.

Xonkendi shahridagi Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammiti doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif bilan uchrashuv o'tkazdi.

O'zbekiston – Pokiston strategik sheriklik munosabatlarini qabul qilingan «Yo'l xaritasi» asosida yanada kengaytirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Turli darajalardagi muloqotlar faol kechayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro savdo hajmi, qo'shma korxonalar va to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar ko'paymoqda. Karachi va Lahorda savdo uylari tashkil etilgan.

Savdo-iqtisodiyot, investitsiya va transport-kommunikatsiya sohalaridagi kooperatsiya loyihalari va dasturlarini jadallashtirish, shu jumladan, Transafg'on temir yo'li qurilishini ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Joriy yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va biznes forumini samarali o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

O'zbekiston va Pokiston yetakchilari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonda davlat tashrifi dasturi samarali tadbirlarga boy bo'ldi.

Davlatimiz rahbari 2-iyul kuni Boku shahrida Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev bilan muzokaralar o'tkazdi.

Davlatlararo oliy kengashning ikkinchi majlisi bo'lib o'tdi. O'zbekiston – Ozarbayjon do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari hamda amaliy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Tashrif doirasida hamkorlikning turli yo'nalishlari bo'yicha ikki tomonlama hujjatlarining salmoqli to'plami imzolandi.

Yetakchilar Boku shahrida birgalikda «O'zbekiston» bog'iga asos soldilar va O'zbekiston elchixonasining yangi binosini ochdilar. «Sea Breeze» dam olish maskani faoliyati bilan tanishdilar.

3-iyul kuni O'zbekiston Prezidenti Ozarbayjon Prezidenti hamrohligida Xonkendi shahridagi qo'shma tikuvchilik fabrikasi faoliyati hamda Ag'dam shahridagi «Imorat» tarixiy-me'moriy majmuasi bilan tanishdi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi yakunlandi.

O'zA.

## Munosabat

# O'ZBEKISTONNING YANGI TIMSOLI

## Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan yaratilgan Vatanimizning ijobiy imiji haqida o'ylar

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.

Imij so'zi inglizcha *Image*, lotincha *Imago* – timsol, ko'rinish ma'nolarini ifodalaydi. Shaxs yoki hodisani ommalashtirish maqsadida odamlarga hissiy, ruhiy ta'sir ko'rsatishni ko'zlab shakllantiriladigan qiyofa, targ'ib qilish vositasi.

Prezidentimizning Ozarbayjonga tashrifi doirasidagi uch muhim nuqta e'tiborimni o'ziga tortdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjonga davlat tashrifi doirasida Boku shahrida «O'zbekiston» bog'iga tamol toshi qo'yildi. 4,5 gektar maydonda O'zbekistonning boy madaniyati va an'alarini namoyon etadigan ulkan majmua barpo qilindi.

Tarixiy tashrif davomida Prezidentlar O'zbekistonning Ozarbayjondagi elchixonasining yangi binosini ochdi.

Prezidentimiz Ozarbayjonga davlat tashrifi doirasida Fuzuliy shahrida ham bo'ldi. 2023-yil avgust oyida ikki mamlakat yetakchilari Fuzuliy shahrida O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan birodir xalqlarimizning mustahkam do'stlik ramzi sifatida Mirzo Ulug'bek nomidagi zamonaviy maktabga asos solgan edi...

Xalqaro miqyosda O'zbekistonning ijobiy imijini yaratish Shavkat Mirziyoyevning ulkan maqsadlaridan biri ekaniga shak-shubha yo'q, albatta. Bu tarixiy jarayonning shitob bilan

davom etayotgani har birimizga faxr-iftixor bag'ishlaydi.

Buning o'ziga yarasha sabablari bor. Biz mustaqilligimizning dastlabki 25 yilida jahon hamjamiyati nazarida, Markaziy Osiyo nuqtai nazaridan qaralsa, ishonchsiz qo'shni, Turkiy davlatlar tashkiloti nuqtai nazaridan ajralib qolgan davlat, xalqaro ekspertlar fikriga ko'ra mustabid tuzum illatlaridan to'la qutula olmagan, o'z pozitsiyasiga ega bo'lmagan mamlakat sifatida ko'rilganmiz.

O'zbekiston boshqaruviga kelgan Prezident Shavkat Mirziyoyev bunday salbiy qarashlarga butunlay barham berdi. Tashqi siyosat borasidagi bosh maqsad – O'zbekistonning ijobiy imijini yaratishga qaratildi.

Tarixan qisqa davrda O'zbekistonning ijobiy imijini namoyon etishga qaratilgan konsepsiya yaratildi, ishlay boshladi.

To'g'ri, bunga osonlikcha erishilmadi. Faqat Prezident Shavkat Mirziyoyevning qat'iy siyosiy irodasi hal etuvchi omil bo'lib xizmat qildi. Biz buni Ozarbayjon tashrifi doirasida yana bir bor chuqur anglab yetdik.

O'zbekiston tomoni ijobiy imij yaratish borasida, asosan, quyidagi tamoyillarga amal qilib kelmoqda:

**birinchidan** – hamkorlarning manfaatlarini ustun qo'yish, fikrlariga hurmat bilan qarash, ichki ishlariga aralashmaslik, birinchi bo'lib

qo'l uzatish, birinchi qadamni tashlash;

**ikkinchidan** – tarixiy an'analarga sodiqlik, qardoshlik tamoyillarini ulug'lash, qo'shnihilik talablariga so'zsiz amal qilish;

**uchinchidan** – gegemonlik vasvasasidan voz kechish, o'z kuch va qudratini namoyon qilmaslik, manfaatlar muvozanatini e'tibordan chetda qoldirmaslik;

**to'rtinchidan** – samimiylk, o'zaro hurmat, bag'rikenlik, hamjihatlik tuyg'ularining ustuvorligi.

Bunga eng yorqin, yangi bir misolni keltirib o'tishni o'rinni deb o'ylayman.

**O'zbekistonning Boku shahrida joylashgan elchixonasi yangi binosidagi zallar O'zbekiston hududlari nomi bilan atalgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlik ramzi sifatida zallardan biriga Qorabog' nomini berishni taklif etdi.**

Bu kutilmagan fikr, taklif butun Ozarbayjon xalqini quvontirganiga, qalbini larzaga solganiga ishonaman.

O'zbekistonning ijobiy imiji biz uchun qanchalik muhim, zarurat va ehtiyoj ekanini bilamizmi?

Bugungi dunyoda o'zaro munosabatlarda ancha murakkablashdi. Globalashuv o'z domiga qadriyatlarini tortmoqda. Kechurun hukmronlik qilgan siyosat tongga borib o'zgarimoqda. O'z mohiyatini, qiymatini yo'qotmoqda. Hatto qudratli mamlakatlarning ham xalqaro miqyosdagi obro'si pasayib ketayotganini ko'ryapmiz. So'zi, hukmi zaiflashib borayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Dag'dag'a va qo'rqitishlar bilan maqsadga

erishib bo'lmaydigan hayotning o'zi ko'rsatyapti.

Bugungi dunyo haqida o'ylaganimda O'zbekiston rahbarining uzoqni ko'zlagan, jahon diplomatiyasida yangilik bo'lgan tashabbus va g'oyalardan faxrlanaman.

Bugun o'zbekistonlik Yevropaga boradimi, Amerikagami, Osiyogami – qayerda bo'lmasin, uni hamma olqishlar bilan kutib oladi. O'zbekistonliklar uchun ochilmaydigan eshikning o'zi yo'q.

Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi xalqimiz bunga atigi 4-5 yil ichida erishdi.

Bugun jahonda O'zbekiston deganda – tinchlikparvar, insonparvar mamlakat namoyon bo'ladi. Xalqaro huquqning teng ishtirokchisi, xalqaro tashkilotlar nuqtai nazarida yaqin hamkor davlat g'avalanadi.

Mamlakatning ijobiy imiji xalqaro sport musobaqalarida, olimpiadalarda, ilm-fan rivojida, turizm, iqtisodiyotda, investitsiya jalb etishda, xalqaro moliya institutlari ishonchini qozonishda juda muhim o'rin tutadi.

Ozarbayjonda «O'zbekiston» bog'i yaratilishi, yangi elchixona binosining qad rostlashi jahon hamjamiyati e'tiborini o'ziga tortmasdan qolmaydi.

Bu Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekistonning yangi timsolini yaratish borasidagi yana bir muhim qadamidir.

**Rustam XOLMURODOV,**

**Samarqand davlat universiteti**

**rektori, O'zbekiston Respublikasi fan**

**arbovi, Oliy Majlis Senati a'zosi.**

## YUVENAL ADLIYA TIZIMI SHAKLLANTIRILMOQDA

Huquqshunoslikda «juvenal adliya» (*Juvenile Justice*) tushunchasi mavjud. U bolalar huquqbuzarligi, sodir etganligi uchun bolalarni jinoyit javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan jinoyat turlari va huquqbuzar bolalar uchun mo'ljallangan muassasalarda bolalarga qilinadigan muomala usullari va huquqbuzarliklarning oldini olish yo'llari kabi mavzular qamrab olinadigan keng tushunchadir.

### Yig'ilish

Parlamentlararo ittifoq turli mamlakatlar parlamentlariga juvenal adliyaga aloqador qonun hujjatlarini takomillashtirish takliflarini ilgari surgan bo'lib, ulardan balog'atga yetmagan bolalarning jinoyat sifatida baholalanmaydigan harakatlari (harakatsizligi) uchun ularga jinoyatchidek muomala qilinmasligi, jinoyat sodir etishda ayblanayotgan balog'atga yetmagan bolalar Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning sud jarayoniga taalluqli 40-moddasi 2-qismida ko'zda tutilgan kafolatlardan foydalana olishga qodir bo'lishi, ularning huquqiy yordam

olishga bo'lgan huquqlari va ishini ko'rib chiqishning barcha bosqichida maxfiylikning huquqiy tan olinishi kabi talablar o'rin olgan.

Mamlakatimizda ham juvenal adliya tizimini rivojlantirish, huquqiy va ijtimoiy jihatlarni qamrab oluvchi kompleks yondashuvni qo'llash hamda idoralararo samarali hamkorlikni ta'minlash maqsadida Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan tajribali mutaxassislardan iborat idoralararo ishchi guruh tashkil etildi.

Ushbu guruhning asosiy

vazifasi bolalarga nisbatan odil sudlov sohasida milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga muvofiqligini tahlil qilish hamda idoralararo hamkorlikni kuchaytirishdan iborat.

Kecha ishchi guruhning dastlabki yig'ilishi o'tkazilib, unda odil sudlov sohasida milliy qonunchilikni tahlil etish, xalqaro standart va tajribalarni o'rganish, maqbulni implementatsiya qilish, ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlarni belgilash va uni amalga oshirish kabi masalalar muhokama etildi.

Yig'ilish davomida YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi bolalar himoyasi bo'yicha mutaxassisining mavzuga doir taqdimoti o'tkazildi hamda ishchi guruh a'zolarining fikr-mulohazalari va takliflari eshitildi.

Bildirilgan takliflardan kelib chiqib, ishchi guruhning chora-tadbirlarini ishlab chiqishga kelishib olindi.

«Xalq so'zi».

### Milliy tanlov

## “GENDER TENGLIK FAOLI”

Oliy Majlis Senati hamda Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tashabbusi bilan «Gender tenglik faoli» milliy tanlovi e'lon qilindi.

Tanlovning maqsadi – tashkilotlar va jamoatchilik o'rtasida gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosatni shakllantirish, bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarga keng jamoatchilik e'tiborini qaratish, soha rivojiga hissa qo'shayotgan faol subyektlarni rag'batlantirish hamda ularning ilg'or tajribalarini ommalashtirish.

Mazkur tanlov respublika miqyosidagi ijro etuvchi hokimiyat organlari, ularning hududiy va mahalliy bo'linmalari, hokimliklar, nodavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari va ommaviy axborot vositalari o'rtasida tashkil qilinadi.

**Tanlov uch bosqichda o'tkaziladi va natijalarga ko'ra:**

- «Gender tenglikni ta'minlashda eng faol tuman (shahar) tashkiloti»;
- «Gender tenglikni ta'minlashda eng faol hududiy tashkilot»;
- «Gender tenglikni ta'minlashda eng faol respublika tashkiloti»;
- «Gender tenglikni ta'minlashda eng faol hokimlik»;
- «Gender tenglikni ta'minlashda eng faol nodavlat notijorat tashkiloti»;
- «Gender tenglikni ta'minlashda eng faol tadbirkorlik subyekti»;
- «Gender tenglikni targ'ib qilishda eng faol ommaviy axborot vositalari» kabi nominatsiyalar bo'yicha g'oliblar aniqlanadi va ular diplom, maxsus statuetka va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanadi.

Tanlov haqida batafsil ma'lumotni Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda uning hududiy bo'linmalaridan yoki 71-202-10-67 telefon raqami orqali olish mumkin.

«Xalq so'zi».

Xitoyning Shenyang shahrida ShHT shafeligida o'tkazilayotgan Xalq diplomatiyasi va Birodarlashgan shaharlar forumlarida O'zbekiston vakillari faol qatnashmoqda.

## BARQARORLIK VA BIRDAMLIK – ASOSIY MAQSAD

Prezidentimizning Ozarbayjonga amalga oshirgan davlat tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik, do'stlik va ittifoqchilik munosabatlarida yangi davrni boshlab berdi.

Prezidentlar huzurida imzolangan atrof-muhitni muhofaza qilish, fan, kasb-hunar va oliy ta'lim sohalarida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitimlar, 2025-2026-yillarga mo'ljallangan sanoat kooperatsiyasi hamda 2030-yilga qadar tovar ayirboshlashni 1 mlrd. dollarga yetkazish dasturlari, 2025 – 2027-yillarda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ta'minoti sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha amaliy harakatlar rejasi kabi kelishuvlar tashrifning ishonch ahamiyatini namoyon etadi.

Bugungi kunda ikki davlat o'rtasida 300 ga yaqin qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda, loyihalar portfeli esa 4 mlrd. dollarga yetib, savdo hajmi 25 foizga oshgan. Bu loyihalar ikki mamlakatning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishi, ish o'rinlari yaratishi bilan nafaqat Toshkent va Boku, balki Toshkent viloyati va Sumgait shahri, Navoiy va Gabala shaharlarini ham faol iqtisodiy sheriklarga aylantirmoqda.

Qolaversa, O'zbekiston yuklarining Ozarbayjon orqali Yevropaga tranziti 25 foizga oshgani logistika yo'nalishidagi hamkorlikning yorqin namunasidir. Mart oyidan buyon elektron ruxsatnomalarning joriy etilishi yo'l harakatini yanada shaffoflashtirdi. Bu ikki davlatning mintaq va Yevropa bog'liqligidagi rolini kuchaytirishi tabiiy.

Shuningdek, elektr energiyasini Yevropaga eksport qilishga qaratilgan loyihalar «yashil» energetika sohasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Bu nafaqat ekologik barqarorlik, balki yangi valyuta tushumlari manbai sifatida ham muhim.

Bugun xalqaro hamjamiyat jiddiy inqirozlar, xavf-xatarlar va ziddiyatlar girdobiga kirib bormoqda. Geosiyosiy tartibning izdan chiqishi, harbiy to'qnashuvlar va global institutsional tizimning zaiflashuvi ortidan nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy barqarorlik ham sinovga duch kelmoqda. Ana shunday bir vaziyatda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammitidagi nutqi va ilgari surgan tashabbuslari nafaqat mintaq, balki butun dunyo uchun muhim

siyosiy va amaliy ahamiyatga ega.

Davlat rahbari o'z nutqida xalqaro nizolar, xususan, Yaqin Sharqdagi harbiy to'qnashuvlar va Eron – Isroil ziddiyatiga alohida e'tibor qaratib, tinchlikni tiklashda muloqot hamda diplomatik yondashuvning o'zini muhim ekanini ta'kidladi. Bu xalqaro huquqning ustuvorligi, kuch ishlatishga emas, kelishuvga asoslangan munosabatlarning qo'llab-quvvatlanayotgani belgisidir.

Yadroviy quroldan xoli hududlar geografiasini kengaytirishga oid taklif esa global xavfsizlikni ta'minlashda O'zbekistonning tamomila konstruktiv, pragmatik va insonparvar yondashuvga ega ekanini yaqqol namoyon etadi.

Yana bir tashabbus – «Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari – 2035» konsepsiyasi esa savdo, investitsiya, transport va raqamli texnologiyalar kabi sohalarni qamrab olgan holda tashkilot faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Bunda, ayniqsa, elektron savdoni rivojlantirish, notarif to'siqlarni bartaraf etish, «yashil yo'laklar» tizimi kabi tashabbuslar mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa ayni murakkab geosiyosiy vaziyatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning eng to'g'ri va uzoq muddatli yo'lidir.

O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi faol hamkorlik nafaqat ikki davlatning hamjihatligini, balki Yevrosiyoda iqtisodiy va siyosiy birdamlikni mustahkamlaydi. O'rta yo'lak koridorining rivoji – Markaziy Osiyo va Kavkazni Yevropaga bog'lovchi mustahkam logistika yo'lagini shakllantiradi.

Prezidentimizning Ozarbayjonga amalga oshirgan davlat tashrifi strategik taraqqiyot va xalqlar manfaatiga qaratilgan yangi davrning boshlanishidir. Bu hamkorlik butun mintaqa taqdirini o'zgartirish salohiyatiga ega. Shu bois O'zbekiston va Ozarbayjonning qo'shma loyihalar, siyosiy yaqinligi, tarixan qardoshligi yangi geosiyosiy va iqtisodiy arxitekturadagi muhim tayanchlardan biriga aylanmoqda.

Gulnoraxon ABDULHONIDOVA,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

## Senator va hayot

## MUAMMOLAR JOYIDA YECHIM TOPDI

Kecha Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi a'zosi Malika Qodirxonova navbatdagi fuqarolar qabulini o'tkazdi.

Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Farg'ona, Sirdaryo, Surxondaryo, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahridan kelgan 50 nafardan ortiq kishilarning muammolari, taklif va murojaatlari eshitildi.

Ochiq muloqot shaklida bo'lib o'tgan tadbirda aksariyat murojaatlar moddiy yordam, uy-joy, kommunal xizmatlar, tadbirkorlik, kadastr hamda prokuratura va sud ishlariga oid bo'ldi.

Qabul davomida fuqarolarning ayrim muammolari joyida mutasaddi tashkilotlar rahbarlari va xodimlari bilan bog'lanib, ijobiy hal etildi.

Xususan, Sirdaryo viloyatining Xovos tumanida istiqomat qiluvchi N. Sodiqova o'z murojaatida tibbiy yordam ko'rsatish masalasida ko'mak so'ragan va buning uchun tuman tibbiyot birlashmasi bilan aloqa o'rnatildi hamda zarur mablag' ajratildi. Shuningdek, Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanlik X. Hamroboevaning alimant undirish masalasi, Toshkent shahrida Yunusobod tumanida yashovchi M. Ahmedovning noqonuniy kredit qarzdorligi bilan bog'liq masala ham ijobiy hal etildi.

Fuqarolar murojaatlarida ko'tarilgan masalalar senator tomonidan nazoratga olindi.

## INNOVATSION TIZIM SINAB KO'RILDI

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi Gulnora Ma'rufova Toshkent shahrining Mirobod tumanida bo'lib, ijtimoiy masalalar yuzasidan o'rganishlar olib bordi.

Tadbir doirasida hududdagi Xalq qabulxonasida tuman hokimi A. Sayfutdinov raisligida sayyor qabul tashkil etildi.

Qabul davomida aholi tomonidan kelib tushgan ichki yo'llarni ta'mirlash, obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish, sug'orish tizimlarini tiklash, tashlandiq hududlarni tozalash hamda aholining kundalik turmushiga ta'sir etuvchi boshqa masalalar yuzasidan murojaatlar tinglandi va hal qilish choralari ko'ldi.

Mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida tegishli tuman tashkilotlari rahbarlari, mahalla faollari va xalq deputatlari tuman

Kengashi a'zolariga aniq vazifalar yuklatildi.

Bundan tashqari, senator o'rganishlari davomida Salor mahallasini obodonlashtirishga qaratilgan loyiha bilan tanishdi. Mahallada quyosh panellari yordamida daraxt va ko'chatlarni sug'orish tizimi joriy etilgan. Mazkur innovatsion tizim Salor kanali ustiga o'rnatilib, sinov tartibida muvaffaqiyatli ishlatildi.

O'rganish yakunida tizim samaradorligini oshirish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida qo'shimcha amaliy chora-tadbirlar belgilandi.

«Xalq so'zi».

## Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

## TINGLOVCHILAR BILAN MULOQOT

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi tomonidan "Qonun ustuvorligi - har qanday demokratik jamiyatning asosiy ustuni" mavzuida davra suhbatlari o'tkazildi. Unda deputatlar, Sudyalarning oliy maktabi tinglovchilari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.



Tadbirda barcha sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi faoliyatining asosiy yo'nalishlari, fraksiyalar, qo'mitalar faoliyati, qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayoni haqida atroflicha ma'lumotlar berildi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari sud hokimiyati

mustaqilligini hamda faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bilan bir qatorda, fuqaro va tadbirkorlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish imkonini bergani qayd etildi.

Ochiq va samimiy ruhda o'tgan davra suhbatida Sudyalarning oliy maktabi tinglovchilari bo'lib o'tgan uchrashuv ularda milliy qonunchilik tizimiga, davlat boshqaruvi organlarining ish uslubiga bo'lgan qiziqishni yanada oshirganini ta'kidlashdi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar Qonunchilik palatasining katta majlislar zali, Parlament kutubxonasi va muzeyi faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGI TA'MINLANADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mitasi tomonidan "Oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan ishchi guruh yig'ilishi o'tkazildi.

Ikkinchi o'qishga tayyorlanayotgan mazkur qonun loyihasi bilan oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi yo'nalishidagi sanitariya choralarini, qoida va normalarni ishlab chiqish hamda qo'llash tartibi JST bitimi talablari bilan uyg'unlashtirilmoqda.

Oziq-ovqat mahsuloti va ozuqaning xavfsizligiga qo'yiladigan umumiy talablar, oziq-ovqat biznesi operatorlarining huquqlari va majburiyatlarini nazarda tutilayotgan.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotining xatarlar tahlili va kritik nazorat nuqtalari tizimi asosida doimiy

tartiblarni ishlab chiqish, joriy qilish va qo'llashga qo'yiladigan talablar belgilanmoqda.

Ishchi guruh yig'ilishida deputatlar tomonidan qonun loyihasini takomillashtirish bo'yicha berilgan taklif va fikr-mulohazalar chuqur tahlil qilindi. Undagi normalar maromiga yetkazildi.

Shu bilan birga, belgilanayotgan normalarning qonunchilikka mutanosibliigi ham ko'rib chiqildi.

Mas'ul qo'mitada qonun loyihasini takomiliga yetkazish ishlari davom etmoqda.

«Xalq so'zi».

## Da'vat



## PARKENT UYG'ONGANLAR VATANI BO'LSIN!

## Mahmud TOIR, O'zbekiston xalq shoiri, Oliy Majlis Senati a'zosi.

Chotqol tog'idagi chiroqdir Parkent, Poklik qaynab yotgan buloqdir Parkent, Quyosh nurin tutgan mayoqdir Parkent, Elin dilu joni e'zozga to'lsin, O'zi uyg'onganlar Vatani bo'lsin!

Keling, o'tmishidan so'yilamay mayli, Armonin bo'yiga bo'yilamay mayli, Yurtboshi tashrif yuksalish sayli, Bog'i endi bag'in chamani bo'lsin, Parkent uyg'onganlar Vatani bo'lsin!

Toshning tomiriga gul ekan bog'bon, Yer bilan tillashib, dil to'kkan dehqon, Bu o'sha parkentlik, hazrati inson, Gulzori xush niyat sumani bo'lsin, Parkent uyg'onganlar Vatani bo'lsin!

Yetti kent Parkentning yetti gavhari, Yetti kentning ahli kishimish zargari, Ular bog'bon, sohibkorlar sarvari, Ko'rib yashnagaysiz "Rizamat" tusin, Parkent uyg'onganlar Vatani bo'lsin!

"Oltinbel" Chotqolning oltin belidir, O'zanin o'pingan soylar selidir, "Oltinbel" chiroyi gilos gulidir, Yurtboshin yayratgan bog'lar barq ursin, Parkent uyg'onganlar Vatani bo'lsin!

Bobur nigohida nuri qolgan yurt, Vosifiy madhida duri qolgan yurt, Hoja Axror Valiy izidagi qut, Asrlar unutmaz, duosin sasin, Parkent uyg'onganlar Vatani bo'lsin!

Yangi O'zbekiston - tilaklar yangi, O'zbek cho'g'in tutgan yuraklar yangi, Yurt bo'yab taralar baxtning ohangi, Tog'lik yigitlarning samani bo'lsin, Parkent uyg'onganlar Vatani bo'lsin!

Yurtboshi yuzidan nur yog'iladi, Izidan baraka, dur yog'iladi, Ahli Parkent xushlab, umrin tiladi, Dedi: "Parkent boylar tumani bo'lsin", Avval uyg'onganlar Vatani bo'lsin!

Hushyorlar hamisha Haqqa xush yoqar, Halollar, shubhasiz, xalqqa xush yoqar, Uyg'oqlar dilida daryolar oqar, Turonning Sir, Amu daryosi to'lsin, Parkent uyg'onganlar Vatani bo'lsin!

Elektropoyezd yangi yo'lida, Quvonchin qutlovi Parkent elida, Shukrona dilida, duo tilida, Mudom parkentliklar tolei kulsin, O'zi uyg'onganlar Vatani bo'lsin!

Jannat bog'larining parchasi Parkent, Yuz ochgan oftobning darchasi Parkent, Uzoqning izlagan qanchasi, Parkent, Gul yonida yantoq ko'rganlar yulsin, Parkent uyg'onganlar Vatani bo'lsin!

Parkent ahli qalqib oyoqqa tursin, Vijdonin yuzini chiroqda ko'rsin, Uyg'oqmisiz, degan, so'roqda ko'rsin, Alloh yorlaqagan tumani bo'lsin, Parkent uyg'onganlar Vatani bo'lsin!

Parkent tog'larini to'lg'otdi quyosh, Tong otdi, olamni uyg'otdi quyosh, G'aflet bolishida yotma, vatandosh, Parkent O'zbekiston chamani bo'lsin, Albat, uyg'onganlar Vatani bo'lsin!

## DEHQON MEHNATI QADR TOPAYOTGAN YURT

Dehqon yerga don socharkan, kun sanaydi. Urug'ni bexato undirib olish, g'alla mayzalari bir tekis o'sishi uchun ozmuncha ter to'kadimi?

Murakkab ob-havo sharoitidan tortib, eng kerakli agrotexnika tadbirlarini qo'llashgacha bo'lgan jarayonlardan o'tish oson kechmaydi, albatta. Eng muhimi, ular o'zlarining tunu kun qilgan halol mehnatlari samarasini hosil pishib yetilib, o'z vaqtida o'rib-yig'ib, xirmonga to'kilgan damda, asosiysi, belgilangan rejalar oshirib uddalangan, yuzlari yorug' bo'ladi.

## Mavsum

Va shundagina fermerning ko'ngli xotirjam tortadi.

Shu ma'noda, bugungi murakkab global iqtisodiy sharoitda, ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligi dunyo miqyosida eng dolzarb masalaga aylanib borayotgan bir paytda, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi sohasida mavjud resurslar va imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, yangi O'zbekistonimizning bu yilgi ulkan g'alla xirmoni omilkor dehqon va fermerlar, g'allachilik klasterlari, suvchilar va agronomlar, mexanizatorlar hamda sohaning fidoyi olimu tajribali mutaxassislarining zahmatli mehnatlari evaziga yaratilganini mamnuniyat bilan ta'kidlashni istardik.

Erishilgan ulkan yutuqlarimiz zamirida, albatta, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mamlakatimiz agrar sohasida, xususan, qishloq xo'jaligining g'allachilik tarmog'ida amalga oshirilayotgan keng ko'lami yangilanishlar, izchil islohotlarning amaliy natijasi mujassam.

O'zbekiston xalqaro hamjamiyatning ajralmas bir qismi o'laroq, integratsion jarayonlarning hozirgi chuqurlashuvi sharoitida xalqaro bozorlarda kuzatilayotgan salbiy tendensiyalar, dunyo miqyosida davom etayotgan siyosiy, iqtisodiy murakkab vaziyatga qaramasdan mamlakat qishloq xo'jaligida erkin raqobatni ta'minlaydigan bozor tamoyillari izchil joriy qilinmoqda.

Prezidentimizning qat'iy irodasi, uzoq istiqbol ko'zlangan sa'y-harakatlar tufayli g'alla bozorini erkinlashtirish yo'lida jiddiy

islohotlar amalga oshirildi. Va mublag'asiz aytish mumkin, aynan bu borada tarixiy qaror qabul qilgach, g'alla hisolini davlat tomonidan sotib olish va sotishda bozor narxlarini qo'llanilib, g'allachilikka ixtisoslashtirilgan klasterlar va fermerlarga bug'doyini bozor narxida to'liq erkin sotish huquqi berildi. Bu esa, avvalo, qishloq xo'jaligi sohasini erkinlashtirish, fermer va dehqon xo'jaliklarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning moddiy manfaatdorligini oshirish yo'lida tashlangan muhim qadam bo'ldi.

Davlat rahbari qayta-qayta ta'kidlayotgan hayotiy iborani bir eslang-a: "Qachonki fermer boy bo'lsa, xalq ham boy bo'ladi". Biz to'la ishonch bilan ayta olamizki, bugun fermerlarimiz erishayotgan yutuqlar ushbu haqiqatni yana bir bor isbotlamog'da.

Aytish joizki, 2020-yildan e'tiboran davlat buyurtmasi asosida boshqoli don yetishtirish amaliyoti bekor qilinib, sohada bosqichma-bosqich bozor tamoyillari joriy etildi. Fermer xo'jaliklariga g'alla yetishtirish uchun ajratilgan imtiyozli kredit mablag'laridan erkin foydalanish hamda xizmat ko'rsatuvchi va resurs yetkazib beruvchilarni ixtiyoriy tanlash huquqi berilishi, shuningdek, don xarid qilish hamda sotishda birja mexanizmining joriy etilishi yuqori manfaatdorlikni ta'minlamog'da.

Davlat resursi va birja savdolarida sotish uchun g'alla topshirish ko'proq manfaat keltirayotganini fermerlarimiz amalda his etmoqda.

Prezidentimiz tomonidan g'allakorlarning fidokorona mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida 2025-yil hosilidan boshlab mahsulot yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar amaldagi 12 foizdan 10 foizgacha tushirilgan holda, to'g'ridan-to'g'ri fermer xo'jaliklariga ajratish tartibi joriy qilinganini alohida e'tirof etish lozim. Shuningdek, suv tejovchi texnologiyalar qo'llash uchun subsidiya ajratilishi natijasida yomg'irlatib sug'orish tizimlari o'rnatilgan g'alla maydonlari kengaytirildi.

Bundan tashqari, soha olimlarining ilmiy tavsiyalari hamda g'alla ekish va yetishtirishning har bir bosqichida o'tkazilgan o'quv-amaliy seminarlar, g'allakorlar ta'бири bilan aytganda, ob-havoning qulay kelishi mo'l hosil yetishtirish imkonini berdi.

Yurtboshimiz tomonidan qabul qilingan tegishli Farmon va qarorlar orqali fermer hamda qishloq xo'jaligi subyektlari uchun katta imkoniyat va imtiyozlar yaratildi. Xususan, 2025-yilning o'tgan davrida qator imtiyoz va vakolatlar berildi.

Birinchidan, soliq yuki yengillashtirildi. Ya'ni davlat rahbari tomonidan 2025-yil 19-martda imzolangan Farmona muvofiq, fermer xo'jaliklarining soliq qarzdorligi bo'yicha hisoblangan penyalari hisobdan chiqarildi, ijro ishlari to'xtatildi.

Ikkinchidan, Prezidentimizning 2025-yil 28-martdagi qaroriga binoan, paxtachilikda gektardan 50 senter, g'allachilikda esa 80 senterdan yuqori hosil olgan fermerlarga qo'shimcha imtiyozlar joriy etildi. Ya'ni ijara olingan yerlarning 25 foiz qismiga

almashlab ekish huquqi (chorva ozuqasi, sabzavot, moyli ekinlar) berildi, fermerlar kengashi a'zolik badali 0,6 foizdan 0,3 foizga tushirildi, yer solig'ida bazaviy stavkaga nisbatan mutanosib ravishda 3 karragacha kamaytiruvchi koeffitsiyentlar qo'llashga ruxsat berildi.

Bunday g'amxo'rlik va yuksak e'tibordan



Davlat rahbari qayta-qayta ta'kidlayotgan hayotiy iborani bir eslang-a: "Qachonki fermer boy bo'lsa, xalq ham boy bo'ladi". Biz to'la ishonch bilan ayta olamizki, bugun fermerlarimiz erishayotgan yutuqlar ushbu haqiqatni yana bir bor isbotlamog'da.

ruhlangan fermerlar bu yil g'alladan 80 senter va undan ham yuqori hosil olishga bel bog'lab, 2025-yil hosili uchun jami 997 ming gektar suvli maydonlarda kuzgi boshqoli don ekinlari ekib, obitobida parvarish qildi. Bunda soha mutaxassislari tomonidan o'quv-seminarlar tashkil etilib, fermer va dehqon xo'jaliklarining bilim va ko'nikmalari oshirib borilgani ayni muddao bo'ldi.

Shu bilan birga, ekish mavsumi o'tgan yillardagiga nisbatan 10 - 12 kun erta yakunlanib, oktyabrning uchinchi 10 kunligi va noyabr oyidagi yog'ingarchiliklar hisobiga asosiy g'alla maydonlarida ekin tuproqning tabiiy namiga undirib olindi. Qolaversa, mart - may oylarida

azotli mineral o'g'itlar bilan 3-marta hamda makro-mikroo'g'itlarga boyitilgan biostimulyatorlar bilan suspenziya usulida 4-5-marta bargidan oziqlantirilgani mag'zi to'q va mo'l hosilga mustahkam poydevor bo'ldi. Natijada Romitan, Vobkent, Do'stlik, Mirzacho'l, Paxtakor, Kasbi, Koson, Nishon, Qamashi, Qiziltepa, Kattaqo'rg'on,

Chirchiq, Qibray, Beshariq, Bag'dod, Dang'ara, Qo'shtepa, Rishton, Farg'ona tumanlarida 80 - 85 senterdan don hosili yetishtirildi.

Shuningdek, g'alla parvarishida ilg'or agrotexnologiyalar qo'llagan Mirzacho'l tumanidagi "Fayz Shaxrux", Do'stlik tumanidagi "Baraka", "Chashma-2", Paxtachi tumanidagi "Norbo'ta Meyliyevich dalasi", "Farrux", Angor tumanidagi "O'ktambek Sunnatbek", "Zilola Sarvar Surxon", Denov tumanidagi "Islom Ahmad Mirzayevlar", "Alpomish Denov", Jarqo'rg'on tumanidagi "Xalqobod Guliston", Oltinsoy tumanidagi "Amirov Dilmurod", "Tarag'ay zamini", Termiz tumanidagi "Shuhrat Termiz", "Ulug'bek Xurramov", Hazorasp tumanidagi "Sulaymon", "Soli turkman", "Sotiboldi kuli", "G'ofur Ruxiya" fermer xo'jaliklarida 100 senterdan hosil olindi.

Yetishtirilgan hosilni o'rib-yig'ib olish uchun 2 366 ta g'alla o'rish otryadi tashkil etilib, ularga 3 104 ta yuqori unumli kombayn, 14 133 ta yuk avtomobili, 2 508 ta traktor tirkamasi birlashtirilgan mavsumni uyushqoqlik bilan o'tkazishda qo'l keldi, albatta.

Erishilayotgan bu kabi yuksak muvaffaqiyatlar ortida, yana bir bor ta'kidlaymiz, lafzi halol dehqon va fermerlarimiz, soha fidoyilarining fidokorona mehnati yetibdi. Ayni paytda puxta o'ylangan islohotlar va ilmiy yondashuvlarning amaliy samarasi hamdir.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i bo'lgan g'allachilikni rivojlantirish orqali aholining don mahsulotlariga talabini to'la qondirish maqsadida sug'oriladigan ekin maydonlari kengaytirilib, serhosil, istiqbolli navlar yaratilayotgani bois hosildorlik yil sayin oshib bormoqda. Binobarin, fermerlar nafaqat iqtisodiyot lokomotivi, balki yurtning obodligi, vatan ravnaqi, xalq ma'murchiligi yo'lida astoydil jon kuydiradigan bilimdon, siyosiy yetuk kishilar sifatida shakllanib borayotgani tufayli mamlakatimizning baxtli istiqboli yo'lida qilinayotgan ezgu ishlar ana shunday yuksak samaralar berayotir.

Zokir ALLAMURADOV, O'zbekiston Fermerlari kengashi bo'lim boshlig'i.

Namangan viloyatida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyat yurituvchi mas'ullar uchun Mintaqaviy o'quv-trening markazi ochildi.

# MILLIY LIBOSLARIMIZ – MA'NAVIYATIMIZ KO'ZGUSI

Jumla jahonda har qaysi millatning o'z tili, dini va qadriyatlari kabi milliy liboslari ham o'ziga xos bo'lib, ular turli shaklda namoyon bo'ladi. Xuddi shunday: insonlarning shakli shamoyili, yuz ko'rinishi, ovozi, boringi, ichki va tashqi dunyosi turfa bo'lganidek, kiyinish madaniyati-da bir-biridan farq qiladi.

## Dolzarb mavzu

O'zbek milliy liboslari esa har xil iqlim injiqliklariga mos keladi. Qish faslida tanani sovuqdan himoya qilishga qolmay, bir vaqtning o'zida kishining purviqor qiyofasini o'zida aks ettiradi. Yoz faslida yengil va nafas oladigan matolardan tiklangan kiyimlar quyoshning zararli nurlaridan asraydi.

Milliy liboslarimiz, avvalo, yuksak did belgisi hisoblanadi. O'zbek xotin-qizlarining kundalik liboslaridan tortib, er yig'itlarning rangin belbog'larida, bir-biridan go'zal naqshinkor do'ppalarimizda milliylikimiz ufuib turadi.

Aytish kerakki, mohir chevarlar va dizayn ustalari milliy liboslarimizdagi an'anaviy mohiyatni saqlab, zamonaviy ko'rinishdagi yangi to'plamlar yaratmoqda. Ilgari xotin-qizlar uchun, atlas yoki adrasdan yoqa bumali ko'ylaklar tikilgan bo'lsa, hozirgi kunda turli to'nlari, choponlar va rang-barang xalatlari urfaga kirdi. Milliylik bilan uyg'unlashgan har qanday tijoriy mahsulotlarning bozori chaqqon, desak, xato bo'lmaydi.

Kamalning yetti rangini mujassam etgan atlaslarimiz, adraslardagi naqshlar, ipak matolarning jozibas o'ziga ohanrabodek tortadi: qizil, yashil, ko'k, oq, pushti, sariq, qirmizi va boshqa yorqin ranglar baxtiyorlikni, quvonchni aks ettiradi. Qora rang qayg'u-iztirob tuyg'usiga mengzalsa-da, yorqin ranglar bilan birga tamsil qilinsa, viqor va mag'rurlikni ifoda etgandek bo'ladi.

O'zbek milliy liboslarining yaratilishi ulkan mehnat va yuksak did natijasidir. Unda, asosan, paxta va ipakdan tayyorlangan tabiiy matolardan foydalaniladi. Matolarning ishlab chiqarilishi o'ziga xos maxsus tabiiy muhit va qo'l mehnatini talab qiladi. Ipak tolalarini yuvish, ranglash va naqshini bir-biriga uyg'unlashtirib to'qish sabr va mahorat taqozo etuvchi san'atdir.

Hozirgi sanoatlashgan davrda ham an'anaviy ipak matolarning sifatiga yetadigan darajada mahsulot yaratilgan emas. Milliy liboslarimiz esa nafaqat inson salomatligini ta'minlaydi, balki uzoq yillik qadriyatlarimizni, sharqona odob-axloqimizni ifoda etadi. Shu jihatdan, insonning madaniy didi va ma'naviy darajasi kiygan libosida namoyon bo'ladi.

Milliy qadriyatlarimizga ko'ra, kiyimlar ham yil fasllari kabi insonning yoshi va jinsiga, kasbi-

**Milliy liboslarimiz, avvalo, yuksak did belgisi hisoblanadi. O'zbek xotin-qizlarining kundalik liboslaridan tortib, er yig'itlarning rangin belbog'larida, bir-biridan go'zal naqshinkor do'ppalarimizda milliylikimiz ufuib turadi.**

botmasligi va havo o'tkazuvchanligi bilan qadrlanadi.

Taassuf bilan aytamizki, globallashgan bugungi zamonda kiyinish madaniyatida milliy qadriyatlarga zid holatlar paydo bo'lmoqda. G'arbona urf-odatlar milliy o'zlik va qadriyatlarimizning zavol topishiga xizmat qilmayaptimi?! Axir milliy liboslarimiz diniy qadriyatlarimiz bilan uyg'unlashgan bo'lib, bir-birini to'ldiradi-ku.

Bugun shahar ko'chalarida yarim-yorti kiyingan yoshlarni uchratishimiz xavotirlidir. Bu holat nafaqat salomatlikka ziyon, balki ma'naviy va ijtimoiy me'yorlar buzilishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Axir inson o'zi yashab turgan tegrasidagi urf-odat va qadriyatlarga mas'uliyat bilan yondashishi kerak. Yosh avlodning jamoat oldidagi harakatlari, o'zini tutishi va kiyinish madaniyati shu muhitga mos bo'lishi zarur.



koriga qarab tanlanadi. Deylik, yosh bolalar uchun liboslar turli naqshlar, hayvon va gullar tasvirlari bilan bezatiladi, mato ranglari ham o'g'il yoki qiz bola uchun alohida bo'ladi. Yoshlarning liboslari yorqin bo'lib, jo'shqinlikni, shijoatni ifodalasa, keksalarning liboslari vazminlik va jiddiyligni o'zida aks ettiradi.

Bayram va to'ylarda, asosan, ipakdan tayyorlangan bezakli liboslar kiyiladi. Har kunlik ish kiyimlari esa paxta tolasidan bo'lib, badanga

Milliy liboslarimizdagi odob-axloq chegaralari yoshlarimizning insoniy qadriyatlarini saqlab qolishiga xizmat qiladi. Shu bois milliy liboslariga bo'lgan hurmatni oshirish, ularda aks etgan ma'naviy qadriyatlar, ezgu g'oyalarni avaylab-asrash, ularni kelgusi avlodlarga ham bezavol yetkazish muddaosi kiyinish madaniyatining bugungi kun uchun ham nihoyatda dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Yoshlar – jamiyatimizning eng faol va o'zgarishlarga ta'sirchan qatlami. Ularning kiyinishi, yurish-turishi, dunyoqarashi tarbiya va madaniyat bilan chambarchas bog'liq. Bugun ular orasida turli ajnabiy uslublarni moda sifatida qabul qilayotganlar uchrayapti. Bu holat milliylikdan uzoqlashishga, o'zbek xalqining didini boshqa madaniyatlar ta'sirida shakllantirishga olib keladi. Shuningdek, jinrlararo kiyinish chegaralarining yo'qolishi, ayrim ayollar va erkaklarning o'zaro kiyinish uslubini taqld qilishi jamiyatda nomuvofiq holatlarni keltirib chiqarishi xavfi yo'q emas. Bu esa tarbiyadagi befarqlik oqibatidan yuzaga keladigan achinarli holdir.

Bunday xatarli holatlarga qarshi tomoshabinlik yaramaydi. Bunday tahdidlarga qarshi tura olish uchun yoshlarda milliy g'urur va estetik didni shakllantirish juda muhim. Mamlakatimizda o'tkazilayotgan milliy liboslar kuni, atlas va do'ppi festivallari, ko'rgazma hamda tanlovlar, ommaviy axborot vositalaridagi maqolalar, eshittirishlar, ko'rsatuvlar ana shunday maqsadlarga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, milliy liboslarimiz orqali biz qaysi xalq, qaysi millat va qaysi qadriyat egasi ekanimizni namoyon qilamiz. Ularda sharm-hayo, iffat, pokizalik va ulug'vorlik mujassam. Milliy liboslarimizga ehtirom – milliy o'zligimizga bo'lgan hurmatni tamsil etadi.

Muxtasar aytganda, kiyinish borasida unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizning ma'naviy tarbiyasida beparvolik va loqaydlik hukm sursa, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda paydo bo'lgan zaif hamda o'jiz nuqta katta o'pqonga aylanadi. Shu bois ham barcha ziyolilar, tarbiyachilar va ota-onalar milliy liboslarimizni asrash hamda targ'ib etishni nafaqat madaniy, balki vijdon ishi va jamiyat oldidagi ma'naviy burch sifatida qabul qilishi zarur. Zotan, milliy kiyimlarimizning bezavol saqlanishi milliy o'zligimizning, ma'naviy qadriyatlarimizning bardavomligini belgilaydi.

Zulfiya MO'MINOVA,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi, shoira.



## INSON SALOMATLIGI UCHUN GLOBAL TAHDID

**Dunyoda har oltinchi odam yolg'izlikdan aziyat chekadi. Va yolg'izlik bilan bog'liq muammolar yiliga 871 mingdan ortiq o'limga olib keladi.**

Bu haqda Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining hisobotida qayd etildi.

Ekspertlarning ta'kidlashicha, yolg'iz odamlarning depressiyaga tushish ehtimoli ikki baravar ko'p. Yolg'izlik ko'pincha tashvish va o'z joniga qasd qilish haqida salbiy fikrlarga olib keladi. Bundan tashqari, yolg'iz odamlarga sifatli ta'lim olish yoki yaxshi ish topish qiyinroq. Aytishicha, yolg'izlikdan o'smirlar va yoshlar, shuningdek, kam ta'minlangan odamlar ko'proq aziyat chekash ekan.

Eslatib o'tamiz, 2023-yilda JSST tomonidan yolg'izlik inson salomatligi uchun global tahdid, deb e'lon qilingan edi.

## 45 MILLION BOLA GUMANITAR YORDAMGA MUHTOJ

**YUNISEF e'lon qilgan hisobotda Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasida 12 milliondan ortiq bolalar ko'chishga majbur bo'lgani aytiladi. 40 mingdan ziyod mayib-majruh, 20 mingga yaqini esa halok bo'lgan.**

"Mintaqadagi 220 million bolaning yarmi mojarolardan aziyat chekayotgan mamlakatlarda yashaydi. Biz bu raqamning o'sishiga yo'l qo'ya olmaymiz", dedi YUNISEFning Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika bo'yicha mintaqaviy direktori Eduard Begbeder.

Mintaqada uy-joy, maktab, sog'liqni saqlash muassasalari vayron bo'lgan. Bolalar muntazam ravishda hayot uchun xavfli vaziyatlarda yashashga va ko'chishga duchor bo'lmoqda. Bu, odatda, bolalarga butun umrlik ruhiy zarbalar beradi. YUNISEF hisob-kitoblariga ko'ra, 2025-yilda mintaqada bo'lgan 45 million bola gumanitar yordamga muhtoj bo'lishi mumkin.

## DRONLAR EVERESTNI CHIQINDILARDAN TOZALAMOQDA

**Avvallari tog' tizmasini tozalash vazifasi an'anaviy ravishda gid va yuk tashish vazifasini bajaradigan mahalliy sherpa xalqi vakillariga yuklangan edi. Ular qor yoki muz bilan qoplangan xavfli yo'nalishlar bo'yab o'nlab kilogramm chiqindini qo'lda olib tushgan. Joriy mavsumda mahalliy hokimiyat Xitoyning "DJI" dronlarini xarid qildi. Ularning har biri ilgari bir necha kishi ko'tarishi mumkin bo'lgan yukni olib uchishga qodir.**

"Airlift" xizmati provayderi bunday tozalovchi dronlardan foydalanishni kengaytirmoqchi. Loyiha menejeri Milan Pandeyning aytishicha, kompaniya Nepal hukumati bilan faol hamkorlik qilayotir va Himolay oraliqidagi turli balandliklarda yangi dron modellari sinovdan o'tkazmoqda.

Everest tog'idagi chiqindilar tog' turizmining eng dolzarb ekologik muammolaridan biri. Taxminlarga ko'ra, Everestda 50 tonnadan ortiq chiqindilar to'planib qolgan. Ularning miqdori har yil 3 tonnaga ko'payib boradi.

## O'RTA YER DENGIZIDA HARORAT ANOMAL DARAJAGA KO'TARILDI

**Yerni sun'iy yo'ldoshlar orqali kuzatuvchi "Copernicus" xizmati ma'lumotiga ko'ra, shu yil iyun oyida O'rta yer dengizining ayrim hududlarida suv harorati mavsumiy me'yordan 5 darajaga ko'p oshgan. 1-iyul kuni esa maksimal harorat 29,85 darajagacha yetgan. Bu, ayniqsa, Balear orollari, Ispaniya va Fransiyaning dengiz qirg'og'i sohillarida aniq sezilgan.**

Bu xususda "Der Spiegel" nashrida xabar berilgan. Olimlar rekord darajadagi issiq suv to'liqlari 2022 va 2023-yillarda kuzatilgan, endi esa bu ekstremal issiqlik bosqichlari g'ayrioddiy darajada uzoq davom etayotganidan xavotirda. Buning oqibatida baliqlar boshqa hududlarga ko'chmoqda yoki populyatsiyalar kamaymoqda.

Mutaxassislar tabiatda barcha hodisalar o'zaro bog'liqligini eslatib, iliqroq suv ko'proq jamlangan energiya ekanini aytmoqda. Bu esa bug'lanishdan keyin havo namligining oshishiga, to'fonlar, suv toshqinlari va kuchli bo'ronlarga olib kelishi mumkin. Bunday hodisalar boshqa dengizlarda ham kuzatilmoqda, okeanlar endi ortiqcha issiqlikni o'zlashtira olmayapti.

Olimlarning xulosasiga ko'ra, Yerning energetik muvozanati buzilgan.

Internet xabarlarini asosida  
Sharofiddin TO'LAGANOV («Xalq so'zi») tayyorladi.

## Aks sado ISHONCHNI AMALIY ISHLARIM BILAN OQLAYMAN

**Yoshlik – inson hayotidagi eng go'zal va baxtli onlar. Bu faqat vaqt nuqtai nazaridan emas, balki insonning orzulariga, maqsadlariga to'la bo'lgan eng bebaho davri. Yoshlik har bir yig'it-qizga hayotini o'zgartirish uchun berilgan eng katta tuhfa, aslida.**

Umrinning mana shunday unutilmas onlarida "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlanganim va ayniqsa, Yurtboshimizning o'z qo'lidan bu davlat mukofotini olish sharafiga muayassar bo'lganim – hayotimdagi eng yorqin lahza, desam, sira mubolaga emas. Bu shaxsiy yutuq emas, balki hukumatimiz tomonidan yoshlarga berilayotgan katta ishonchning amaliy ifodasidir.

Ushbu yuksak mukofot men kabi yurt ravnaqi yo'lida mehnat qilayotgan minglab tengdoshlarimga berilgan e'tibor va e'tirof natijasidir. Endi bu ishonchni amaliy ishlarim bilan oqlayman.

Sariosiyo tumanidagi Konchilar mahallasida ochilgan "Sitara Profession" MChJda mehnat qilayotgan 34 nafar xotin-qiz safini yangi a'zolar bilan to'ldirib, qishloq yoshlari quvonchiga quvonch qo'shaman. Hududimizdagi ish bilan band bo'lmagan 110 nafardan ziyod ayollarni mavsumiy ishga jalb qilganimiz ham juda katta yutuгимizdir. Bu kabi xayrli ishlar ko'lamini yanada kengaytirib, ishbilarmon tengdoshlarimga namuna bo'lish ezgu maqsadim.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etishni istar edimki, tadbirkorlikka oid imtiyozlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ta'lim va malaka oshirish uchun yaratilgan qulayliklar biz, yoshlar uchun katta tayanch va suyanch manbaiga aylanmoqda. Asosiysi esa



yurtimizda yoshlarga ilm cho'qqilarini egallashlari, o'zining aql-zakovati, ijodiy imkoniyati hamda kuch-quvvatini namoyon qilishi va rivojlantirish uchun sharoitlarning yangi ufqlari ochilyapti. Ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan minglab yoshlar qatorida men ham O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratishga o'z hissamni qo'shaman, degan niyatdaman. Va fursatdan foydalanib, Yurtboshimizning biz, yoshlarga bildirgan ishonchi va berilayotgan imtiyozlar uchun o'zimizning cheksiz minnatdorligimni izhor etaman.

**Sitora HAKIMJONOVA, Sariosiyo tumanidagi "Sitara Profession" MChJ rahbari, "Kelajak bunyodkori" medali sohibasi.**

## Bir guruh o'qituvchilar Germaniyada malaka oshirmoqda

**Qashqadaryo viloyati hokimligi hamda Leypsig shahar Hunarmandchilik palatasi o'rtasida viloyatdagi texnikumlarda Germaniya standartlari asosida kasbga o'qitishni yo'lga qo'yish bo'yicha kelishuv imzolandi.**

### Hamkorlik

Shunga ko'ra, dastlab G'uzor tumani va Shahrisabz shahridagi texnikumlarning 8 nafar o'qituvchisi bir oy davomida Germaniyada bo'lib, malaka oshirib qaytdi.

– Mutaxassisligimiz bo'yicha Germaniya o'quv dasturlarining yutuqlari, bugungi kunda sohada qo'llanilayotgan eng zamonaviy

uslublarini o'qib-o'rgandik, – deydi Shahrisabz shahar 1-son politexnikumining bino va inshootlar qurilishi bo'yicha o'qituvchisi G'ulomjon G'ofurov. – Ayni paytda o'rganmalarimizni texnikumning o'quv dasturiga joriy etdik. Germaniyalik hamkasblarimiz ham ishimizni kuzatib, o'z

maslahatlarini berib borishyapti.

E'tiborli tomoni, bitiruvchilarning diplomida ham qaysi dastur bo'yicha o'qigan qayd etiladi. Bu esa ularning malakali mutaxassis sifatida nafaqat bozoriga ham erkin kirib borishini ta'minlaydi.

Shu kunlarda hududdagi texnikumlarda faoliyat yuritayotgan 24 nafar o'qituvchi Germaniyaga 2 oylik malaka oshirishga jo'nab ketdi.

Jahongir BOYMURODOV  
(«Xalq so'zi»).

## Mustahkam oila – farog'at maskani

**Qorako'l tumanida Oila va xotin-qizlar maskani foydalanishga topshirildi. Tuman hokimligi Xotin-qizlar bo'limi qoshida faoliyat yuritadigan bu go'sha "oilam poydevorini mustahkamlayman, kasb-hunar egallayman, o'z haq-huquqini biladigan, onalik mas'uliyatini his etadigan bo'lib yetishaman", degan opa-singillarimiz uchun eshigi mudom ochiq maskanga aylanishi kutilmoqda.**

### Qulaylik

Gap shundaki, bu yerda huquqiy, tibbiy, psixologik maslahatxonalar, kutubxona faoliyat olib boradi. Kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalari hosil qiluvchi mashg'ulotlar o'tkaziladi. Tikuv sexi ham mavjud. Nikohlanuvchi yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, turmush tashvishlari oldida qiynalib qolgan oilalarni qo'llab-quvvatlash kabi masalalar ham maskan jamoasi diqqat markazida bo'ladi.

Ma'lumot tariqasida aytish o'rinni ki, Qorako'l tumanida xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularning muammolarini hal etish borasida muayyan tajriba to'plangan. Keyingi ikki yil davomida 2,4 mingga yaqin xotin-qizlarning ishga



joylashtirilgani, moliyaviy muassasalar tomonidan 1700 dan ziyod ayollarga tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadida 28 mlrd. so'mdan ko'proq kredit mablag'lar ajratilgani, "ayollar dafnari"ga kiritilgan salkam 4 ming nafar xotin-qizga amaliy yordam ko'rsatilgani ana shundan dalolat beradi.

Istam IBROHIMOV  
(«Xalq so'zi»).

## Dzyudo bo'yicha jahon chempioni, "Parij – 2024" Olimpiya o'yinlari g'olibi Diyora Keldiyorova Xalqaro dzyudo federatsiyasi Atletlar komissiyasi a'zoligiga saylandi.

### Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 11 845 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmatov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir H. Qarshiboyev.  
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 23.00 Topshirildi – 23.45 1 2 3 4 5 6

## Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi